

QO‘YLARNING MAHSULDORLIK KO‘RSATKICHLARI

Mamatov X.A. Amangeldiev U.A., Turg‘unov S.S., Bisenbaev O.S.
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti Nukus filiali

Annotatsiya. Maqolada qo‘y zotlari ularning go‘sh t mahsuldorligini yetishtirishning texnologik xususiyatlari keltirilgan bo‘lib, uning tarkibi, xillari va teri xomashyosiga e‘tibor berilgan.

Kalit so‘zlar. Zot, ozuqa, go‘sh t, bug‘ozlik davri, yaylov, zahira, quruq modda, teri xomashyosi.

Kirish. Qo‘y go‘sh t kimyoviy tarkibi jihatdan tahlil qilinganda asosan ikkita komponent: suv va quruq modda aniqlanadi. Quruq modda ham bir qancha komponentdan tashkil topgan. Ularning asosiy qismini oqsil tashkil qiladi.

Go‘sh tni sifatiga obe‘ktiv va to‘liq baho berish uchun uning kimyoviy tarkibini o‘rganish muhim amaliy va nazariy ahamiyat kasb etadi. Shu narsa aniqlangan va isbotlanganki, yosh o‘tishi bilan go‘sh tning kimyoviy tarkibi o‘zgarib boradi. Yosh hayvonlarda suv va oqsil miqdori, yog‘ miqdoriga nisbatan ko‘p bo‘lsa, yetuk yoshdagi hayvonlarda uning teskarisi yog‘ miqdori ko‘payib boradi. Aksincha, suv va oqsil miqdori asta-sekin kamayadi.

Qo‘ylarning eng muhim xususiyatlaridan biri ularning turli xil iqlim sharoitiga tezda moslashishidir. Ular sovuq va issiq iqlim sharoitlariga chidamli bo‘lib, janubdagi quruq cho‘l hududlarida ham mo‘‘tadil kengliklar, yashil tekisliklarida o‘zlarini juda yaxshi xis etadi, tezda yaylovlarga moslashadi, hatto ozuqa kam yaylovlarda ham o‘zlari uchun ozuqa topadi.

Ular ko‘plab turli xil begona o‘tlarni topib iste‘mol qiladi. Ko‘p kamerali oshqozon va ovqat hazm qilish tizimi, dag‘al ozuqalarni 75 % gacha o‘zlashtirish imkonini beradi.

Qo‘ylar sovuqdan cho‘chimaydi va quruq yaylovlarga ham bardoshli bo‘ladi. Oziqlantirish va sug‘orishda uzilishlar bo‘lganda, ko‘pchilik qo‘y zotlari organizmida to‘plangan yog‘lar (quyruq, ichki yog‘) hisobidan sarflaydi. Qo‘ylarning biologik umri 12-14 yil, ammo xo‘jaliklarda foydalanish muddati 6-7 yil. Ular tez yetiluvchan.

Jinsiy yetilish 6-7 oy, lekin odatda 1,5 yoshda ulardan avlod olishda foydalanila boshlaydilar.

Agar yoshlari erta yetilsa, ularning tana vazni katta ona qo‘y tana vaznining 75-80 % ni tashkil qilishi kerak. Qo‘ylarda jinsiy sikl (kuyga kelish davriyligi) 17 kun (o‘rtacha 15-20kun).

100 bosh ona qo‘ylardan 100-150 bosh qo‘zi olish imkoni bo‘lsa, ba‘zilari ya‘ni Romanov va finlyandiya qo‘y zotlari ko‘proq (100 bosh ona qo‘yga 250-300 yoki undan ziyod) qo‘zilaydi. Bug‘ozlik davri o‘rtacha 150 kun (ba‘zi bir zotlarda 140-155 kun davom etadi, bu ona qo‘yning yoshiga, semizlik darajasiga bog‘liq).

Tug‘ilgan qo‘zilarning tirik vazni ularning zoti va tug‘ilgan qo‘zilarning bosh soniga bog‘liq. Yakka tug‘ilgan qo‘zilarning tirik vazni 3- 4,5 kg, ko‘p sonli tug‘ilganda undan yengilroq vaznli bo‘ladi. Ona qo‘yni yaxshi oddiy sharoitda

parvarishlash qo‘zilarning tez rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Qo‘zilarning tirik vazni 15-20 kun ichida ikki barobarga oshadi. Sutkalik vazn ortishi 4 oylik qo‘zida 200-400 g bo‘lib, bu ularning zotiga va oziqlanish darajasiga bog‘liq. Qo‘zilar 4 oyligida ota-onasining 45-50 % tirik vazniga ega bo‘ladi.

Go‘sh t yo‘nalishidagi qo‘ylarning asosiy zotlari

Qo‘ylar eng tez o‘sadigan hayvonlardan biri bo‘lib, ularni parvarishlash serdaromad biznes hisoblanadi. To‘rt oylik qo‘zichoqlar bir yil davomida katta qo‘zining 80-90 % vaznini yig‘ishga erishadi, o‘rta semirish miqdori 300 g ni tashkil qiladi. Qo‘ylar parvarish uchun alohida e‘tiborni talab qilmaydi. Qo‘ylar go‘sh t mahsuldorligi ularning zotiga bog‘liq bo‘lib, hozirgi kunda ular anchagina.

Xisor zoti

Xisor zotli dunyodagi eng yirik *go‘sh t yo‘nalishidagi* zot bo‘lib, go‘sh t ishlab chiqarishda keng foydalaniladi. Go‘sh t-yog‘ uchun boqiladigan dag‘al junli dumbali qo‘y zotlaridandir. Ushbu zotlar yaxshi immunitet va chidamliligi bilan ajralib turadi, ular qishin yozin yaylovlarda 400-500 km yo‘l yurishlari mumkin.



Xisor zotlari Tojikiston va O‘zbekistonda keng tarqalgan bo‘lib, Rossiyaning ba‘zi viloyatlarida ham mavjud. Xisor qo‘ylari kuchli mustahkam suyaklari, ingichka va uzun oyoqlari bilan ajralib turadi. Qo‘chqorlarining tirik vazni 130-140 kg, sovliqlariniki 80-90 kg. Tana tuzilishi pishiq, ko‘kragi keng. Boshi katta, shoxsiz, do‘ng tumshuq, qo‘loqlari uzun. Dumbasi 18-20 kg. Tusi, asosan, qo‘ng‘ir. Tez yetiladi. 6 oyligida 60 kg va undan ortiq keladi. Go‘sh t chiqimi 58-60 %. Sovliqlarining balandligi – 75-80 sm, tana vazni 70-80 kg ga teng. Qo‘chqorlarining balandligi 80-85 sm, tana vazni esa 150-170 kg.

Qo‘ylar kuniga 500-600 g vazn oshirish imkoniyatiga ega. Xisor zoti juda yuqori sut mahsuldorligi bilan farqlanadi – 2 oy ichida 100-120 litrgacha sut ajratadi. Xisor qo‘ylarining alohida ajralib turgan jihatidan biri yuqori jun mahsuldorlikka ega. Juni dag‘al bo‘lib, kigiz tayyorlanadi. Qo‘chqorlaridan 1,3-1,6 kg, sovliqlaridan 1,0-1,4 kg dan jun qirqib olinadi. Chidamli, yil bo‘yi yaylovda parvarishlashga moslashgan. Har 100 bosh sovliqdan 95-110 bosh qo‘zi olinadi.

Romanov zoti

Romanov zoti eng qadimgi va eng keng tarqalgan qo‘y zotlaridan biridir. Romanov zotli ona qo‘ylaridan 5 va undan ortiq qo‘zi olinadi.

Yosh qo‘zilar 7-8 oyligida 35 kg, yetilgan qo‘y 80-90 kg, sovliqlari 45-50 kg atrofida bo‘ladi. Serpushtlilik va tez yetiluvchanlik ushbu zotning mamlakatimizda urchitish uchun yaxshi sababchilari bo‘lishi mumkin. Romanov zotli qo‘ylar mavsumga qaramay ikki yilda 3 avlod berishi mumkin. Ushbu zot qo‘ylar yuqori sutlilik bilan ham ajralib turadi. O‘rtacha bir bosh ona qo‘ydan 100 kun davomida 100-110 litr sut sog‘ib olinib, sutining yog‘lilik darajasi 7-8% ga teng.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Богданов Е. “Типы телосложения животных”. Сбор. изд. работ. М-1977. стр 224.
2. Turganbaev R.U. «Qorako‘l qo‘ylarning sut mahsuldorligining konstitutsiya tiplariga bog‘liqligi», «Chorvachilik va naslchilik ishi» ilmiy-amaliy jurnali, Toshkent №1 2020-yil, 22-25 betlar.
3. Бозоров А. Б. “Рост и развитие молодняка каракульских овец сур в условиях гипсовой пустыни”. Материалы международной научно–практической конференции Самарканд. 2019.с. 94-95.
4. Юсупов С. Ю. va boshqalar. Qorako‘lchilikda naslchilik ishini yuritish va qo‘zilarni baholash mo‘yicha qo‘llanma. –Toshkent. 2015, 31 bet.

PARRANDA TUXUMLARIDA EMBRIONLARINI O‘SISH VA RIVOJLANISHI

Mamatov X.A., Tursunbaeva I., Normatov D., Durdiboeva F., Ozodov A
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Nukus filiali

Annotatsiya. Maqolada, parrandachilikda veterinariya-sanitariya qoidalari, tuxum sifatini baholashda vazni, shakli tuxumning tashqi ko‘rinishini ko‘zdan kechirishda uning shakli va po‘chog‘ining holatiga ahamiyat berilgan. “Universal-55” va Xitoy “HB-22528” inkubatoriyalari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Tuxum, inkubatsiya, inkubator, avaskop, ventilyatsiya, murtak.

Kirish. Respublikada parrandachilikni yanada rivojlantirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, sohaga ilg‘or texnologiyalar va innovatsion ishlanmalarni joriy etish, parranda mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, ularning turlari va eksport ko‘lamini kengaytirish, raqobatbardosh parranda